

DESMURGIYA BOG‘LAMLAR QO‘YISHNING UMUMIY PRINSIPLARI

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

**Tibbiy profilaktika ishi Sog‘liqni saqlash boshqarmasi va xorijiy talabalar
fakulteti, 353-”A” guruh talabasi**

Muhammadiyeva Maftuna Vohidjon qizi.

Ilmiy rahbar: Babajonov Kudratbek Baxtiyarovich.

Annotatsiya: Ushbu mavzu doirasida bog‘lam qo‘yishning asosiy tamoyillari ko‘rib chiqiladi, gigiyena va aseptika talablariga rioya qilish, bog‘lam materialini to‘g‘ri tanlash, shikastlangan soha anatomik tuzilishini inobatga olib bosimni me‘yorida taqsimlash, bog‘lamning harakatchanlikni cheklashdagi samaradorligi va bemor uchun qulayligi. Bog‘lamlar tibbiyotda nafaqat jarrohlik va travmatologiyada, balki kundalik amaliyotda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri qo‘yish jarohatning tez bitishi, asoratlarning oldini olish va reabilitatsiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga xizmat qiladi. Shu sababli, desmurgiya prinsiplari tibbiyot xodimlari va talabalar uchun amaliy ko‘nikma sifatida alohida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Desmurgiya, bog‘lam, bint, yelimli bog‘lam, povyazka, desmurjik bog‘lam, immobilizatsiya, jarohat, aseptika, antiseptika, tibbiy yordam.

Desmurgiya - bu turli xil bog‘lamlarni qo‘yishning ilmiy asoslari va amaliy ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi fan. U jarrohlik, travmatologiya, ortopediya, feldsherlik va shoshilinch tibbiy yordam sohalarida alohida ahamiyatga ega. To‘g‘ri qo‘yilgan bog‘lam hayot uchun xavfli bo‘lgan qon ketishlarni vaqtincha to‘xtatadi, shikastlangan joyni tinchlantiradi, infektsiyaning oldini oladi va bemor ahvolini yengillashtiradi.

Bog‘lam qo‘yishning umumiy prinsiplari Bog‘lam qo‘yishda asosiy qoidalar: Gigiena va steril sharoit – bog‘lam materiallari toza bo‘lishi kerak. Yara ustiga faqat steril bint yoki salfetka qo‘yiladi.

Aseptika va antiseptika – jarohatga qo'yiladigan bog'lam infeksiyaning oldini olishi kerak.

Qulaylik – bog'lam bemorga og'riq bermasligi va harakatga imkon berishi lozim.

To'g'ri texnika – bog'lam spiral yoki sakkizsimon bo'lsa ham, har bir qatlam oldingisini yarmiga yopishi kerak.

Qon aylanish nazorati – juda qattiq bog'langanda barmoqlar oqarib ketishi mumkin. Bunday hollarda bog'lam biroz bo'shatiladi.

Mahkam turishi – bog'lam bemor harakatida sirg'alib ketmasligi kerak. Estetik ko'rinish – bog'lam tartibli va toza ko'rinishi lozim.

Bog'lamlarning asosiy turlari Desmurjik bog'lam.

Bint yordamida qilinadigan bog'lamlar eng ko'p ishlatiladigan usullardan biridir. Materiallari: paxta binti, gazli bint, elastik bint, g'ovak bint.

Qo'llanish sohasi: jarohatlar, suyak sinishi, bo'g'im shikastlari, qon ketishlarda. Bint qo'yish usullari:

Aylana (dumaloq) bog'lam – bint bir joyda aylantirib qo'yiladi.

Spiral bog'lam – uzun joylarga (oyoqlar, qo'llar) qo'yiladi.

Spiral bog'lam bukilishli – son, boldir kabi konus shaklli joylarda.

Sakkizsimon bog'lam – bo'g'imlarga (tizzalarga, tirsak, tovon).

Qoplama (qirrasimon) bog'lam – bosh va yelkaga.

Teshikchali bog'lam – ko'z, quloq yoki burun atrofida.

Afzalliklari: arzon, qulay, turli vaziyatlarda ishlatiladi.

Kamchiligi: vaqt talab qiladi, noto'g'ri bog'lansa sirg'aladi. Yelimli bog'lamlar Yara yuzasiga maxsus yelimli moddalar yordamida yopishtiriladi.

Asosan kichik jarohatlar, kesiklar va operatsiyadan keyingi kichik choklarda ishlatiladi.

Afzalligi: tez, oddiy, steril muhit yaratadi.

Kamchiligi: ko'p suyuqlik ajraladigan yoki katta jarohatlarda ishlatib bo'lmaydi.
Leykoplastirli bog'lamlar

Povyaska yordamida steril material jarohat ustiga yopishtiriladi.

Asosan igna kiritilgan joylar, qon olish, ukoldan keyin ishlatiladi.

Afzalligi: tez va qulay.

Kamchiligi: uzoq vaqt yopishtirilsa, terini tirnash xususiyati qiladi, allergiya berishi mumkin. Joylarga qo'yiladigan bog'lamlar

Ma'lum tana qismlariga maxsus bog'lamlar qo'yiladi.

Bosh bog'lamlari: qalpoqcha bog'lam, qopqoncha bog'lam, teshikchali bog'lam.

Qo'l va oyoq bog'lamlari: spiral, sakkizsimon, qoplama bog'lam.

Ko'krak bog'lamlari: spiral yoki qirrali bog'lam.

Qorin bog'lamlari: keng bintlar bilan.

Maxsus immobilizatsion bog'lamlar: sinish va chiqishlarda qo'llaniladi.

Maxsus bog'lamlar

Gips bog'lamlari – suyak sinishi va chiqishlarida immobilizatsiya uchun.

Elastik bog'lamlar – venoz yetishmovchilik, varikoz kasalligida.

Davolovchi bog'lamlar – ichiga dori (malham, antiseptik) qo'yiladi.

Sovutuvchi yoki isituvchi bog'lamlar – shikast joyda yallig'lanishni kamaytirish uchun.

Desmurgiyaning amaliy ahamiyati

Desmurgiya tibbiyotda nafaqat jarohatlarni davolashda, balki: Shoshilinch yordamda – qon ketishini vaqtincha to‘xtatishda; Travmatologiyada – suyak sinishi va chiqishlarda immobilizatsiyada; Jarrohlikda – operatsiyadan keyingi choklarni himoyalashda infeksiyani oldini olishda – aseptik bog‘lamlar qo‘yishda; Kundalik hayotda – uy sharoitida kichik jarohatlarni davolashda qo‘llaniladi.

Xulosa

Desmurgiya – shifokor va hamshiralar uchun eng zaruriy bilimlardan biri. Bog‘lamni to‘g‘ri qo‘yish: qon ketishini to‘xtatadi; shikast joyini tinchlantiradi; infeksiya tushishining oldini oladi; davolash jarayonini tezlashtiradi. Demak, har bir tibbiyot xodimi desmurgiya asoslarini puxta bilishi, turli bog‘lamlarni to‘g‘ri qo‘ya olishi zarur. To‘g‘ri qo‘yilgan bog‘lamlar bemorni davo topishida judayam muhim ro‘l o‘ynaydi. Meni o‘qigan kitoblarim va barcha olgan bilm va ko‘nikmalarimdan kelib chiqib shuni angladimki, bog‘lam bu shunchaki ahamyatsiz oddiy bir tushuncha emas balkim bemorni davolashda va turli hil kasalliklarni oldini olishda judayam katta axamyatga ega ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xtayev X.X. Jarrohlik kasalliklari va desmurgiya asoslari. Toshkent, 2018.
2. Karimov A. Travmatologiya va shoshilinch tibbiy yordam. Toshkent, 2020.
3. Pirogov G.N. Desmurgiya asoslari. Moskva, 2015.
4. Xodjimatomov M. Umumiy jarrohlik va yordamchi fanlar. Toshkent, 2019.
5. Internet manbalari: PubMed, Medscape.